

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Э.Б.Ягъяева**

Дифференцированный метод обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....114

**M.K.Mavlyuda**

O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....117

**G.A.Asomiddinova**

Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati .....120

**N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova**

Speech act as an important function of communication .....125

**Sh.R.Muydinov**

Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....128

**M.Madaminova**

Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings  
in english lesson .....130

**Sh.M.Yusufjonova**

Frazeologizmlar taqiqi.....134

**Ш.И.Аскарова**

К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении  
третичного языка.....137

**Ш.И.Аскарова**

К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после  
английского языка .....141

**Sh.Sh.Dadabayeva**

Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....148

**Sh.Sh.Dadabayeva**

Tarjima jarayonida vaziyatning o'r ganilishi .....152

**Sh.Y.Usmonova**

Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....159

**Sh.Y.Usmonova**

O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....162

**Z.Sh.Pazilova**

Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi .....167

**Z.Sh.Pazilova**

O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari .....170

**R.U.Axrорova**

Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....173

**O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova**

Shifonemas in phraseological units related to the period of youth .....178

**R.U.Axrорova**

Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy  
xususiyatlari .....182

**Z.M.Abdullaev**

Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar .....185

**Z.M.Abdullaev**

Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi .....188

**I.R.O'rinboyev**

Ba'zi na'matak (*Rosa*) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....190

**I.D.Yakubov**

Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari .....193

**M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon**

Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash .....201

**Ё.Г.Абдуганиев**

Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой  
кислоты .....205

**D.M.Ahmedova**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....215

## FRAZEOLOGIZMLAR TAQIQI

### STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS

### ИСЛЕДОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

**Yusufjonova Shaxloxon Muxtorovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti., f.f.f.d., (PhD)

#### *Annotatsiya*

*Ma'lum bir lisoniy hamjamiyatda erkin so'z birikmalaridan farqli ravishda qisman yoki to'liq turg'un holatdagi so'z birikmalari frazeologik birliklar deb ataladi. Ushbu iboralar o'ziga xos semantik va sintaktik xususiyatlarga ega bo'lib, boshqa til vakillari, tarjimonlar uchun murakkab sotsiolingvistik masala hisoblanadi, chunki ular ko'pincha tom ma'noda tarjima qilinmaydi va madaniy kontekstlarga bog'liq holda muloqotda ishtirok etadi. Frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'magan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idiomafrazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'tasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrplashish jumlalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniklash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lilik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniklash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarni oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniklash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarining yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqa Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilmoxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatick vazifaviyuslubiy asoslarga kura tasnif etiladi.*

#### *Аннотация*

Важнейшая задача фразеологии — дифференцировать и отличать фразеоглизмы от словосочетаний, образующихся в речи (т. е. не готовых заранее), и на этом основании определять признаки фразеоглизмов. В зависимости от конкретных различий между идиомами-фразеоглизмами, фразеологическими сочетаниями и устойчивыми предложениями (пословицами и пословицами, другими фразеоглизмами, эквивалентными предложениями), многие исследователи понимают фразеологию в двух направлениях: узком и широком. В широком смысле в рамках фразеологии включаются также пословицы и поговорки, устойчивые предложения, характерные для фольклора, некоторые формы общения (приветствия, прощальные предложения). Но этот вопрос, то есть вопрос понимания фразеологии в широком смысле, до сих пор остается спорным. Основные задачи или вопросы фразеологии: определить логичность фразеологического содержания и в связи с этим изучить признак(ы) фразеологии; описание омонимии, синонимии, антонимии, многозначности и вариации фразеологии; выявить специфические особенности слов, используемых во фразеологии, и их конкретные значения; выяснение взаимосвязи фразеологии и групп слов; уточнить их синтаксическую роль; изучение образования новых значений слов в составе фразеоглизмов и др. Фразеология разрабатывает принципы разделения фразеоглизмов, методы их изучения, классификации и описания в словарях. На основе конкретных, разнообразных методов, разработанных во фразеологии, фразеологический строй языка классифицируется по различным: структурно-семантическим, грамматическим, функциональным и методологическим основаниям.

#### *Abstract*

*The most important task of phraseology is to differentiate and distinguish phraseological units from phrases formed in speech (i.e., not ready in advance), and on this basis to determine the characteristics of phraseological units. Depending on the specific differences between idioms and phraseological units, phraseological combinations and set sentences(proverbs and proverbs, other phraseological units equivalent to sentences), many researchers understand phraseology in two directions: narrow and broad. In a broad sense, the framework of phraseology also includes proverbs and sayings, set sentences characteristic of folklore, and some forms of communication (greetings, farewell sentences). But this question, that is, the question of understanding phraseology in a broad sense, still remains controversial. The main tasks or issues of phraseology: determine the consistency of phraseological content and, in connection with this, study the sign(s) of phraseology; description of homonymy, synonymy, antonymy, polysemy and variations of phraseology; identify the specific features of words used in phraseology and their specific meanings; clarification of the relationship between phraseology and groups of words; clarify their syntactic role; studying the formation of new meanings of words as part of phraseological units, etc. Phraseology develops principles for dividing phraseological units, methods for their study, classification and description in dictionaries. Based on specific, diverse methods developed in phraseology, the phraseological structure of a language is classified according to various: structural-semantic, grammatical, functional and methodological grounds.*

**Kalit so'zlar:** milliy-madaniy tarix, milliy madaniyat, semantika, leksik ma'no, frazeologik birliklar, ekspressiv hususiyat, frazeologik nuqta, frazeologiyaning o'rganilishi kuzatiladi.

**Ключевые слова:** национально-культурная история, национальная культура, семантика, лексическое значение, фразеологические единицы, экспрессивный признак, фразеологический момент.

**Key words:** national-cultural history, national culture, semantics, lexical meaning, phraseological units, expressive feature, phraseological point.

### KIRISH

Frazeologizmlar tuzilishi, leksik–semantik, funksional–uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo'lgan til birligidir. Frazeologiya – tilshunoslikning biror tilga xos barqaror so'z birikmalarni va iboralarni o'rganadigan bo'lim. Frazeologiya (yunoncha "phrasis" – ifoda, ibora va logiya) tilshunoslikning shunday bir bo'limiki, boshqa bo'limlardan nutqqa tayyor xolda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o'zaro mos kelmasligi, ma'no jihatdan turg'unligi bilan farq qiladi [1;58]. Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarni o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish yo'l yo'riqlarini aniqlashga qaratiladi. Barchamizga ma'lumki, til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan avlodga ma'daniy ma'naviy shu bilan birga tarixiy an'analarni yetkazuvchi, asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi. Til milliy madaniyatning xazinasi hamdir. Har bir millat yashayotgan joyning iqtisodiy ijtimoiy tuzumi, san'ati, madaniyati, badiiy adabiyoti, urf – odati, xalq og'zaki ijodini jamlab uni avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy – madaniy semantikasidir. Semantika tillning barcha qatlamlarida: grammatisida, leksikasida, fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy madaniy semantikasi tilning harakatdagi birliklarida juda aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar va barqaror birikmalardir. Nutq jarayonida fikrimizni faqat so'zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan, nutqqa tayyor holda kirib keladigan birliklardan ham foydalananamiz [2;43]. Bu birliklar nutqimizni tasvirlabgina qolmasdan balki uning ma'noli va mazmunli, lo'nda, bo'yoq dor tarzda tasvirlaydi. Tilshunoslikda bunday birliklarni Frazeologiya bo'limi o'rganadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Frazeologizm va so'z bo'lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo'lmaydi. Turli xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologizmlar majmuyi tilning frazeologik qatlarni tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Shu bilan birga xalq tilining taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o'qib, o'rganish va ularni tahlil qilish, tasniflash ma'lum ma'noda o'z xalqining tili haqida ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi. Frazeologizmlar so'zlovchi nutqini ta'sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo'lishini ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi. Frazeologiya fan nuqtai nazari ikki ma'noli bo'lib, uning birinchi ma'nosi barcha ko'chma ma'nodagi turg'un so'z birikmalari (frazeologizmlar) ning umumlashmasi bo'lsa, ikkinchi ma'nosi esa, turg'un so'z birikmalari o'rganiladigan tilshunoslikning bir bo'limini anglatadi.

Frazeologiyaning turli xil muammolari bilan ko'plab tilshunos olimlar shug'ullanib kelishmoqda. Nemis tilidagi ko'plab ilmiy asarlar frazeologiyaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan. U erda frazeologizmlar ma'nolarining batafsil tushunchalari va ularning kelib chiqishi haqida ko'plab muhim ma'lumotlarni topish

mumkin. Tilshunoslikda frazeologiya atamasi Sharl Balli tamonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qo'shib o'rganilgan, lekin frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bildirgan taniqli tilshunos olim prof. E.F.Polivonovdir. O'zbek tilshunosligida esa frazeologizmlarni sistemali ravishda o'rganish Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainov ishlarida boshlangan. Frazema lisoniy birlik sifatida qismga teng bo'ladi, ma'lum grammatik belgi-xususiyatlar qo'shilgandan keyingina butunga aylanadi va nutqda ishlatiladi, keyingi holatida fazema nutqiy birlikka teng bo'ladi va fazema shakl deyiladi" [3;48]. Ammo frazeologiyani keng ko'lamda tushunish masalasi haligacha ham o'z yechimini topgani yo'q desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Frazeologizmlarning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutkda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarni aniqlashdir. Nemis tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-

madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o'ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiat o'ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishi, san'ati, urf-odatlari hamda tarixini ham o'zida mujassamlashtira oladi. Frazeologiya alohida fan sifatida shakillanguniga qadar u leksikalogenyaning tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziqa boshlagan bo'lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g'arb tilshunosi Sh. Balli tomonidan qo'llanilgan. U o'zining "Stilistikadan ocherklar" va "Fransuz tili stilistikasi" asarlarida so'z birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash ma'nolarining o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qo'llanila oladigan birlilikini isbotlashga harakat qildi. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50- yillardan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov va boshqalar), frazeologizm bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M.Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. Shuningdek turkiyshunoslikda frazeologik birikmalar gapning ajralmas bo'laklari bo'lib, ular leksikologiya yoki frazeologienyaning o'rganish ob'ekti bo'lishi lozim, degan qarashlar ham 60-yillardayoq yuzaga kela boshlagan edi. Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ilk bor rus tilshunosi Y.D.Polivanov tahlil qiladi va u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikating tarkibiy qismi emas,balki mustaqil tilshunoslik bo'limi ekanligini asoslab bergen edi."Leksikologiya so'zlarning leksik ma'nolarini, morfologiya so'zlarning grammatik ma'nolarini,sintaksis esa so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan,ko'chma ma'noli so'z birikmalarining,individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda" [4;112]. U tilshunoslikda frazeologiya ham, morfologiya yoki fonetika singari muhim ahamiyat kasb etadigan bo'lim ekanligini ta'kidlab o'tgan tilshunoslardan biridir.Frazeologizmlar shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda,nutqda so'zlarni erkin tanlash,almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi. Frazeologik iboralarni turli tomonidan o'rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish,umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

### XULOSA

Xulosa sifatida frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi. Frazeologik iboralarni turli tomonidan o'rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b.
2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b.
3. A.Mamatov. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari, Toshkent, 1996, 5-48-b. 4.Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. Tarjimada frazeologik iboralarning milliy xususiyati va ularning badiiy asarlardagi tasviriy ifodasi. Current Approaches and new Research and new Research in Modern sciences, 2(2), 112–116. (2023)
5. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna.Фраземаларнинг таржима усупллари ва уларни такомиллаштиришда миллий ва маданий хусусиятларининг ифодаланиш жиҳатлари. Sciences and Innvation in the Education System.2(2), 168–172 .(2023).
6. Шахло Мухторовна Юсуфжонова. Миллий ва маданий хусусиятлар доирасида немис ва ўзбек тилларидаги фразеологик бирликларнинг тавсифланиши. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 4 Issue 2. 1714-1715. February 2023 /.
7. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. Development of Translation of Phraseological Units in German and Uzbek Languages. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. Volume: 02 Issue: 02 / 2023.